

**Loyiha nomi:** “Xorijiy tillarda so‘zlashuvchilar uchun o‘zbek tilini intensiv o‘rgatuvchi multimedia mahsulotlarini yaratish”

**Loyiha raqami:** № FZ-2019062034

**Ilmiy va innovatsion faoliyatning ustuvor yo‘nalishi:** Filologiya, psixologiya va pedagogika fanlari

**Loyiha maqsadi:**

O‘zbekistonning xalqaro jamiyatda nufuzi ortib borayotgani va yurtimizga ko‘plab chet ellik mutaxassislar, tadbirkorlarning ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hamkorlik qilish maqsadida kelayotganlari, shuningdek, tashqi turizm miqyosining tobora kengayib borayotgani tezkorlik bilan xorijiy tillarda so‘zlashuvchilar uchun o‘zbek tilini intensiv o‘rgatuvchi multimedia mahsulotlari – elektron darslik, ko‘p tilli lug‘at va audio so‘zlashgichlar, o‘zbek tili milliy-madaniy so‘zlarining multimediali glossariysini yaratish zaruratini yuzaga keltirdi. Ushbu loyihaning maqsadi o‘zbek tilining Internet global axborot tarmog‘ida munosib o‘rin egallashini ta‘minlash, o‘zbek tili va dunyodagi yetakchi xorijiy tillar asosida elektron lug‘atlar, darsliklar yaratish bilan bog‘liq ilmiy-metodik ishlanmalar, amaliy tavsiyalar tayyorlash va bu borada erishilgan natijalarni amaliyotga keng tatbiq etish; O‘zbekiston bilan ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy sohalarda hamkorlik qilishga intilayotgan chet ellik fuqarolar uchun yanada qulay shart-sharoit yaratish, xorijiy davlatlardagi oliy ta‘lim muassasalarida faoliyat yuritayotgan o‘zbek tili bo‘limlarini o‘zbek adabiy tilining bugungi so‘zligi qamrab olingan multimedia mahsulotlari bilan ta‘minlashdan iborat.

Xorijiy tillarda so‘zlashuvchilarga o‘zbek tilini til kompetensiyasining darajalaridan kelib chiqib, bosqichma-bosqich o‘rgatib borishga qaratilgan va o‘zbek adabiy tilining bugungi so‘zligini qamrab olgan elektron darslik, ko‘p tilli so‘zlashgichlar va o‘zbek tilining boshqa tillarda ekvivalenti bo‘lmagan, tarjima qilinmaydigan leksik birliklari – milliy-madaniy so‘zlarning izohi berilgan glossariy, o‘zbekcha to‘g‘ri talaffuz ko‘nikmalarini shakllantirishga qaratilgan audio va videomateriallar hamda mobil ilova qamrab olingan multimedia mahsulotlari majmuasini yaratish respublikamizning iqtisodiy o‘sishi va ijtimoiy rivojlanishini ta‘minlaydigan ilmiy va texnologik zaxiralarni shakllantirishga xizmat qiladi.

**Loyiha natijalari va ularning ahamiyati:**

Loyiha asosida yaratilgan mahsulotlar xorijiy universitetlarda faoliyat yuritayotgan o‘zbek tili bo‘limlari, til markazlari, elchixonalar qoshida tashkil etilgan kurslar tinglovchilariga o‘zbek tilini tizimli ravishda o‘rganishga imkon beradi. Shuningdek, loyiha mahsulotlari o‘zbek tilini individual ravishda erkin o‘rganayotganlar, xorijda ko‘p yillardan beri yashab kelayotgan vatandoshlarimizga ham taqdim qilinishi mumkin.

Ushbu loyihaning amalga oshishi xorijdagi ta‘lim muassasalarini o‘zbek tili ta‘limi bo‘yicha o‘quv-uslubiy jihatdan ta‘minlanishiga, tayyorlangan mahsulotning ichki va tashqi bozorda sotilishiga imkon beradi.